

Mumtoz maqomlarning shakllanish tarixidan

Oqilxon Ibrohimov¹

Abstrakt

Ogʻzaki anʼanadagi kasbiy musiqaning yuksak namunalari boʻlgan maqomlar aksariyat musulmon Sharq xalqlari mumtoz musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etadi. Arabcha “maqom” atamasi musiqada tovushlarning mukammal uyushmasi va muayyan usullar (ritmik tuzilmalar) asosida ijod etilgan cholgʻu kuy va aytim (ashula)-lar turkumini ifodalaydi. Salobatli maqom turkumlarining mazmun-mohiyatini teran anglashda, avvalo, bu sanʼatning yuzaga kelish tarixi va rivojlanish omillari haqida muayyan tasavvurga ega boʻlish lozim.

Poydevor asoslari juda qadimiy bu sanʼat tarixini ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davrda hozir bizga maʼlum (tom maʼnodagi) maqom turkumlari boʻlmagan, balki maqomlarning bunyod etilishida poydevor yangligʻ ahamiyat kasb etgan ohang-tovush manbalari, taʼbir joiz boʻlsa, oʻq ildizlari yuzaga kelgan. Bu manbalarning muhim bir qatlamini ulugʻ paygʻambarlardan kelayotgan maʼnaviy meros namunalari tashkil etsa, yana bir qatlami – Sharq xalqlari musiqa ijodiyotining qadimiy qadriyatlariga daxldordir.

Kalit soʻzlar: *musiqa, samoʻ, maqom, navo, paygʻambar, marosim, navroʻz, sayil, got, tarona, risola, yetti.*

Kirish

Maqomlarning eng qadimiy manbalarini oʻrganishimizda bizgacha maʼnaviy meros yetib kelgan rivoyatlarning alohida oʻrni bor. Bu borada XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan Buxoro saroy musiqachisi va musiqashunos olimi Darvish Ali Changiyning “Risolai musiqiy”si eʼtiborni oʻziga tortadi [Чангий 1982]. Xususan, Darvish Ali oʻtmishdagi ulugʻ

¹Ibrohimov Oqilxon Akbarovich – sanʼatshunoslik fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sanʼatshunoslik instituti.

E-pochta: okilxoni@bk.ru

ORCID ID: 0000-0002-3118-2041

Iqtibos uchun: Ibrohimov, O. A. 2021. “Mumtoz maqomlarning shakllanish tarixidan”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat* 1: 98–110.

salaflari Hoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog'iy, Hoja Safiuddin ibn Abdulmo'min va Sulton Uvays Jaloyirlarning xabarlariga tayanib yozishicha, avvaliga yetti payg'ambar nomlari bilan bog'liq yettita maqom bo'lgan. Bunda Rost maqomi Odam alayhissalomdan, Ushshoq – Nuh alayhissalomdan, Navo – Dovud alayhissalomdan, Hijoz – Sulaymon alayhissalomdan, Iroq – Ayub alayhissalomdan, Husayniy – Yoqub alayhissalomdan va Rohaviy – Muhammad sallolohu alayhi vassallamdan meros qolgani haqidagi rivoyatlar bayon etiladi [Чангий 1982, 23-28].

Maqomlarning kelib chiqishi bilan bog'liq rivoyatlar

Ushbu rivoyatlarning qisqacha mazmuni shunday:

Rost maqomining kelib chiqish tarixi hazrati Odam alayhissalomga nisbat berilgan bo'lib, uning mazmunida jannatdan quvilgan Odam Atoning o'z gunohiga tavbasi va shu yo'lda ko'plab to'kkan nadomat ko'z yoshi va chekkan nola-yu afg'oni anglashiladi.

Ushshoqning tarixi o'zgacha. Nuh alayhissalomning asl ismlari Yoshkar bo'lib, "Nuh" esa "yig'i" ma'nosini anglatuvchi "navha" so'zidan olingan, deyiladi rivoyatda. Sababi, qalbi muhabbat nuri bilan ziynatlangan Nuh payg'ambar ko'p yig'lar va uning yig'isi "Ushshoq" kuyida o'z aksini topgan edi.

Navo maqomining kelib chiqish tarixi maftunkor ovoz sohibi bo'lgan Dovud alayhissalomga nisbat beriladi. Dovud payg'ambar hamd-u sano aytgan vaqtlari go'zal ovozi ta'siridan hatto yovvoyi hayvon-u qushlar ham mutaassir bo'lgan holda hushini yo'qotayozar edi.

Hijoz maqomi hukmdorlik martabasi va yana ko'plab mulk merosiga ega bo'lgan Sulaymon alayhissalomning Buyuk Yaratganga keltirgan shodlik shukronasining ifodasi o'laroq zuhur etgan.

Iroq nomli ohanglarning yuzaga kelishi esa sabr-matonatli Ayub alayhissalomning hayoti davomida duch kelgan og'ir sinovlarning ijobiy xotimasi bilan bog'liqdir. Og'ir xastalikka muhtalo bo'lgan Ayub payg'ambarning badanlarini qurtlar kemirar va shu zaylda o'n sakkiz yil o'tib, nihoyat sog'ayish vaqti kelgan mahal bir qurt muborak badanlaridan yerga tushib ketadi. Ayub alayhissalom uni qo'lga olib yana qayta badaniga qo'ygan ham ediki, qurt qattiq chaqib oladi va shu onda beixtiyor yuzaga kelgan payg'ambar fig'oni Iroq maqomida bo'lgan ekan.

Husayniy maqomi Yoqub alayhissalomning sevimli zurriyoti bo'lmish Yusuf alayhissalomni ko'p yillik ayriliqdan so'ng ilk bor ko'rgan chog'ida "xoy-xoy" deb yig'lab yuborgan nidolaridan

zuhurlangan.

Rohaviy maqomi esa sevimli payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga nozil etilgan Qur‘oni Karim suralarini go‘zal ovoz birla qiroat qilgan paytlarida jilvalangan edi.

Maqomlarning kelib chiqish tarixiga doir boshqa rivoyatlar ham bor, lekin biz hozirda mazmuni muxtasar keltirilgan va ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan e‘tiroflangani bilan kifoyalidik. Ittifoqo, payg‘ambarlarning samo‘ merosida odamlar uchun ibratomuz namunalar ko‘pdir va shu sababdan ham ular tarix silsilasida izsiz yo‘q bo‘lib ketmadi, balki Buyuk Yaratuvchining qudrat-u hikmati bilan saqlab qo‘yildi.

Masalan, Odam Atoning o‘z gunohiga yig‘lab (ya‘ni, samimiy dildan) tavba qilgani Buyuk Allohga xush keldi va U hayotga kelajak odamlar o‘zlarining sodir etgan gunohlariga shu tariqa tavba qilsalar, ularni ham mag‘firat qilishini bildirdi. Xullas, shu kabi rivoyatlar san‘at ahli uchun axloq-odobdan saboq beruvchi o‘ziga xos tarbiya maktabi vazifasini ham bajarib kelgan. Vaholanki, “ustoz-shogird” ta‘limi an‘anasiga bog‘langan san‘atkorlar har bir ijro avvalida manba sohibi yoki sohiblari (payg‘ambarlar)ni eslab, ularning haqqiga duo yo‘llaydilarki, bu ham maqomchilardan meros kelayotgan go‘zal odob namunalaridandir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, payg‘ambarlar samo‘si davomli tarix silsilasida turli qabila, jamoa-qavmlar orasida muqaddas tuyg‘u yanglig‘ e‘zozlanib, ijtimoiy xotirada avaylab-asralgan holda avloddan-avlodga “ma‘naviy meros” o‘tib kelgan.

Maqomlarning qadimiy manbalari qatorida yana bir qatlam – Sharq xalqlari musiqa qadriyatlarini ham ahamiyatli bo‘lgan. Butun jahon xalqlari tamaddunida kuzatilganidek, Sharq xalqlari (turkiy, forsiy, somiy va b.)ning uzoq o‘tmishda shakllangan turli marosim, ommaviy sayil, bayram va urf-odatlarini bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq holda xalq og‘zaki ijodiyoti ham tadrijiy kelgani tarixdan ayon.

Muqim an‘ana tusini olgan ommaviy bayram va boshqa tadbirlarda qaror topgan har bir xalqning o‘ziga qadrdon musiqiy qiymatlari asrlar davomida el-ulusning azaliy xotirasiga muhrlangani holda avloddan-avlodga bekam-u ko‘st o‘tib kelishini ham ta‘minlagan edi. Xususan, Navro‘z bayrami kunlari ijro etilgan Navro‘zi Arab, Navro‘zi Bayotiy, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi Ajam nomli namunalar, yoki dastlab “Avesto” kitobidagi “got” madhiyalaridan unum olgan *Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh* kabi “muqaddas” kuylar – shunday asriy qadriyatlar jumlasidandir.

Bizning davrga qadar asosan maqomot tarkibida yetib kelgan bu namunalar, aslida (O'rta asrlarda bitilgan risolalardan ma'lum bo'lishicha), sodda shakl va tor ovoz doirasida (diapazonida) bo'lganki, bu hol ularni keng omma kuylashi uchun qulaylik tug'dirgan. Shu kabi kuy, aytimlarning ijodkori va ijrochisi bo'lgan xalq orasidan yetishib chiqqan yorqin iste'dod sohiblari esa goho hukmdorlarning (amaldorlarning) saroylariga musiqachi bo'lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar.

Demak, o'tmishda musiqa san'ati bilan maxsus shug'ullanib, shu tarzda hayot kechiruvchi musiqachi (ijodkor-xonanda, sozanda)lar yuzaga kelgan davrdan e'tiboran kasbiy musiqa qatlami ham qaror topa boshlagan edi. Qadimgi davr musiqachilari "saroy estetikasi"ga muvofiq musiqa asarlarini ijod etishlarida xalq og'zaki ijodida to'plangan badiiy tajriba va musiqa boyliklari asqotgan bo'lishi tabiiydir. Bunda ular el orasida yoyilgan ma'lum kuy va aytimlarni ijodiy qayta ishlagan holda ularning yanada murakkab va mukammal ko'rinishlarini zuhur etishga intilgan bo'lishlari mantiqiy mulohazalarga to'g'ri keladi.

Shu tarzda shakllana boshlagan bastakorlik an'analari esa ustoz-shogird vositasida keyingi avlod musiqachi (ijodkor-xonanda va sozanda)lari tomonidan ijodiy o'zlashtirilgan. Shuningdek, saroy musiqachilari samo'ga oid "musiqiy yo'llardan" ham ijodiy foydalangani haqiqatga yaqindir. Bunga, masalan, Sosoniylar saroyida shoh Xusrav Parviz davrida (590-628) xizmat qilgan mashhur musiqachi Borbadning serko'lam faoliyati va unga nisbat beriladigan "7 Xusravoniy" turkumi misol bo'lishi mumkin. Taniqli musiqashunos olim V.Vinogradovning ta'kidlashicha: "Borbad musiqiy pardalarni (yo'llarni - O.I.) kashf etmagan, balki zamonasining ko'p asrlar davomida qaror topib kelgan musiqa amaliyotini rivojlantirgan va nazariy jihatdan asoslab bergan" [Виноградов 1981, 31].

Lekin maqom tizimlari asosidagi turkumlarning yaratilishini bir ijodkor shaxs faoliyati bilan bog'lab qarash to'g'ri emas. Zotan, maqomlarning yuzaga kelishi payg'ambarlar merosi, xalq musiqasi va shu asosda unib-o'sgan bastakorlik ijodiyoti kabi muhim manbalari barobarida yana ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan ham shartlangan bo'lib, bu davr, taxminan, eramizning VIII-IX asrlariga to'g'ri keladi. Maqom san'atining bevosita tarixi ham aslida aynan shu davrdan boshlanadi.

Shahar madaniyatining musiqa rivojiga ta'siri

Atoqli maqomshunos olim, ustoz Is'hoq Rajabov bundan qariyb 70 yil avval shunday yozgan edi: "Tom ma'nodagi "maqom"larning ham kuy tushunchalarining paydo bo'lishi Sharq xalqlari musiqa madaniyati ancha taraqqiy etgan davrlarga to'g'ri keladi. Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan. Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilm-u fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqaning tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog'liq ekanligini uqtirib o'tganlar" [Ражабов 2006, 49-50]. Olimning davr sharoitiga ko'ra butkul oshkor etilmagan, ammo ishoralarga yo'g'rilgan purma'no fikr-mulohazalariga bugungi saodatli davrimizda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda baholi qudrat sharh berib o'tamiz.

O'rta va Yaqin Sharq xalqlari mumtoz musiqasining eng mukammal zuhuri bo'lgan maqomlarning shakllanishi uchun zarur omillar VIII asrdan yuzaga kela boshlagan. Bu omillar mazmunida esa rivojlangan shahar madaniyatining mavjudligi, kasbiy musiqa qatlami va aniq fanlar (arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa) ravnaqi hamda tasavvuf g'oyalarining badiiy ijodiyotga singib ketgani nazarda tutiladi.

Tarixdan ma'lumki, islom dini keng yoyilgan Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar ro'y bergan, ijtimoiy hayotda islomiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan turfa marosim va tadbirlar shakllanib, ayrim qadimiy urf-odatlar mazmunan yangilangan joylarda madaniyat va san'atning yuksalishi uchun yangi maskanlar qaror topgan edi.

Bu borada, eng avvalo, Sharq musulmon olamida antik dunyodagi politeslardan farqli o'laroq yangi (ochiq) tipdagi shaharlarning madaniy hayoti e'tiborlidir. Jumladan, Bag'dod, Damashq, Halab, Buxoro, Samarqand, Urganch, Toshkent singari shaharlarda mamlakatlararo erkin savdo-sotiq ishlarini tashkil etish bilan birga olim-u san'atkorlar o'rtasida ham ilmiy-madaniy aloqalar jarayoni uchun qulay sharoit yaratilgan edi.

Ayni paytda bu shaharlar umumsavodxonlik markazlari ham bo'lgan. Zero, islom da'vati bilan ilm manbai – kitobxonlik ommaviy tus olgan va bu ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun yirik shaharlarda kutubxonalar faoliyat ko'rsata boshlagan. Ayniqsa, Buxorodagi "Sivan al-hikma" kutubxonasi qimmatli ilmiy asarlarga

boyliги bilan butun Sharqqa mashhur bo'lgan.

Umumsavodxonlik muhitida yetishib chiqqan buyuk vatandoshlarimiz – Abu Ja'far Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850), Ahmad Farg'oniy (797-865), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi qomusiy olimlarning samarali ilmiy faoliyati bois aniq fanlar (algebra, astronomiya, geometriya) va tibbiyot beqiyos rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning (873-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o'laroq Sharq musiqa ilmiga asos solindi. Bag'dodda Xorazmiy, Farg'oniy kabi Movarounnahr va boshqa mamlakatlardan kelgan olimlar jamlangan bo'lib, ularning aksariyati o'zlarining fan sohalaridagi ilmiy yutuqlari bilan shuhrat qozongan edilar.

Yirik shaharlar, ayni vaqtda, hunarmandchilik va san'at turlari ravnaq topgan madaniy markazlar ham edi. Hunarmandchilik turlari qatorida sozgarlik ham ravnaq topganini, masalan, musiqa amaliyotida qo'llab kelingan cholg'ular haqidagi ilmiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiyning "Kitab-ul musiqa al-kabir" ("Katta musiqa kitobi"), Abu Abdulloh Xorazmiyning (vafoti 997-yil) "Mafatih ul-ulum" ("Ilmlarning kalitlari") kabi ilmiy asarlarida tanbur, shohrud, chang, ud, barbad, anqo sanj, rubob, rud, nay, mizmor, surnay, juljul, jom, bong, mi'zafa, daf, tabl kabi ko'plab sozlar tasnif etilganini ko'ramiz. Tabiiyki, asosan, kasbiy musiqachilarning sozlari hisoblangan murakkab ko'rinishli ushbu cholg'ular sozgarlik barobarida mumtoz musiqa san'ati ham rivojlanganidan darak beradi.

Madaniy qadriyatlarning xalqaro miqyosda almashinuvi jadal kechgan bu davrda Movarounnahr, Xuroson, Eron va arab xalqlarining mumtoz musiqasida mushtarak an'analar va bir turli janrlar qaror topa boshlagan. Binobarin, kasbiy musiqa ijodkorligi va ijrochiligi yangi bosqichga yuksalib, shahar-u saroylarda nomlari Sharq olamida mashhur bastakor-xonanda va sozandalarning faoliyat ko'rsatishi urfga kirgan edi. Xalifalar ularga izzat-ikrom ko'rsatgani haqida yozma manbalarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Xususan, Isfahoniyning "Kitab ul-ag'oniy" ("Qo'shiqlar kitobi")da qayd qilinishicha, xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) saroyida Ibrohim al-Mavsiliy, Is'hoq al-Mavsiliy, Ibn Jomiy kabi atoqli san'atkorlar noyob xonandalik va bastakorlik iste'dodlari bilan ko'p olqishlarga sazovor bo'lgan [Исфахани 1980, 374-541].

Bizning diyorumizda ham kasbiy musiqachilar maqomi baland bo'lganini IX asr oxiri – X asr birinchi yarmida Buxoroda faoliyat ko'rsatgan Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy, Alibek Tanburiy,

Abulabbos Baxtiyor, Abu Nasr Mutrib kabi san'atkorlar misolida ko'rish mumkin [Тўраев 2008, 7-8]. Ularning har biri o'tmishdan meros kelayotgan musiqiy yodgorliklarni davr talabi va estetikasi asosida rivojlantirish ishiga munosib hissa qo'shgan.

Xususan, iste'dodli shoir, mahoratli sozanda va xushovoz xonanda Abu Abdulloh Rudakiy Buxoro hokimi Nasr II ibn Ahmad Somoniy (914-943) saroyida xizmat qilgan bo'lsa, Sharq musiqa ilmining asoschisi va ayni paytda mohir musiqa amaliyotchisi Abu Nasr Forobiyning nomi butun Sharq olamining yirik shaharlarida mashhur bo'lgan. Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo'jiziyning yozi-shicha: "Bu aziz hazrati imom Muhammad G'azzoliy, hazrati imom Faxriy Roziylardin kamoli ulumi dinida foyiq fununu ulumlarda Ibni Sinodin ustun erdilarkim, bu aziz bilmaydurg'an na ulumi shariat, na ulumi tariqat, na tafsir, na hadis, na tib, na falsafa, na aqoyid, na ash'or-u abyot, hatto shatranj-u nardg'acha, bilmaydurg'ani yo'q edi. Ul jumladin biri ilmi musiqiy ilmi erdiki, bu fanda ko'b mahorati bor erdi. Qonunni o'z qo'llari bilan yasab, sim tortib, tuzub cholg'an va mug'anniy shogirdlarig'a o'rgatgan edi" [Мўъжизий 2010, 20-21].

Ibn Xallikon (1211-1282) bergan ma'lumotga ko'ra, Forobiy Halab shahri (Suriyadagi yirik shaharlaridan biri)ning amiri bo'lgan Sayfuddavla ibn Xamdon (916-964) huzurida juda katta obro'-e'tibor qozongan [Форобий 1993]. Shu bilan birga, Forobiyning Bag'dod va Xarronda kechgan ilmiy faoliyati ham samarali bo'lgan edi.

Musiqa san'atining mazmun-mohiyati teran idrok etilishida tasavvuf namoyandalari va maktablari (Basra, Xuroson va b.) ilgari surgan ta'limotlar ham ahamiyatli bo'lgan. Qolaversa, so'fiylikning ma'naviy komillik ila Mutlaq Go'zallikka intilish g'oyalari she'riyat va qariyb barcha san'at turlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan edi. Xususan, bu ta'sirni mumtoz she'riyatda kuzatish mumkinki, bunga Abu Mansur as-Saolibiyning (961-1038) "Tatimmat al-Yatima" tazkirasi yaqqol dalildir. Zero, tazkirada zikr etilgan 104 nafar Movarounnahr va xurosonlik shoirning ijodida tasavvuf ramzlari bilan yo'g'rilgan misralar ko'plab uchrashiga guvoh bo'lamiz [Саолибий 1990].

Tabiiyki, tasavvufning samarali ta'siridan musiqa san'ati ham chetda qolmagan. Aynan shu davrlarga kelib samo' (qalban zavqli tinglash) amaliyoti keng yoyildi, musiqaga tasavvuf namoyandalari tomonidan nozik ta'riflar berildi. Jumladan, taniqli muhaddis, shayx Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiyning (vafoti 994-yil) "nag'ma — jon quvvati va ruh ozig'i turur" iborasi mazmunan teranligi bilan musiqa haqida shakllanayotgan qarashlarga muhim asos bo'ldi [Бухорий-Калободий 1993, 13]. Bu ibora hozirga qadar

musiqaga berilgan chuqur ma'noli go'zal ta'riflar qatorida ma'lum va mashhur.

Samo' va musiqa ilmi

Samo' tushunchasi mazmunida go'zal ovoz bilan jilolangan muayyan intizomli (uyg'un) tovushlarning jonli harakat jarayoni va uni qalban zavqli qabul qilish (idroklash) holati anglashiladi. Qablarni hayajonga soluvchi go'zal samo' namunalari payg'mbarlar merosi hamda islom dinining insonni aziz-u mukarram etishdek ma'naviy ta'limotida mavjud. Inson ruhining koinot sari yuksalishiga quvvat bag'ishlovchi bunday mo'jizaviy samo' namunalari, eng avvalo, muqaddas Qur'oni Karim sura, oyatlarini mumtoz tajvid uslubida "o'qish" jarayonida zuhur etadi. Zero, "Qur'on tajvidi (ammo uning o'zi emas) va tanavvuli ham samo'ning tayanchi hisoblanadi" [Hazarov 1995, 23].

Qur'on tajvidi asosida O'rta asr Sharq musulmon olamida yoqimli ovoz (yoqimli tovush) estetikasi ham qaror topgan edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, samo'ning asosiy sifatlari bo'lgan xush ovoz va yoqimli kuy estetikasi bilan ilgari surilgan yangi ijodiy talablar yechimiga amaliyotchilar (ijodkorlar va ijrochilar) qatorida musiqashunoslik ilmi qo'shgan ulush ham salmoqli bo'lgan. Zero, islomda ulug'langan ilm jabhasi va nufuzi farz maqomiga ega bo'lgan ilm olishga intilishdek sharaflil da'vat o'laroq turli fan sohalari barobarida musiqa ilmiga ham katta e'tibor berilgan edi.

Jumladan, nasroniy G'arb olami qadimgi yunon ilmiy merosini ta'qib ostiga olgan bir paytda Bag'doddagi "Baytul-hikma" akademiyasi olimlari qadimgi yunonlarning musiqa ilmiga doir bir qator asarlarini – Aristoksenning "Kitabur-ru-us", (Archay), "Kitobul-iyqo'" (Book of rhythm), Psevdo-Yevklidning "Kitabun-nag'am" (Introductio Harmonica), "Kitabul-qonun" (Sectio canon), Nikomaxning "Kitabul-musiqa al-kabir" (Opus Major on Music), Ptolomeyning "Kitobul-musiqa" (Harmonica) va b. – o'sha davrda ilm tili maqomida bo'lgan arabchaga tarjima qildilar [Farmer 1957, 458-459; Hazarov 1995, 31].

Bu kabi ilmiy mehnat natijalari qadimgi yunonlarning musiqiy qarashlarini nafaqat Sharq olamida, balki keyinchalik G'arb olamiga ham keng yoyilishida muhim o'rin tutgan. O'sha davr an'anasiga ko'ra aniq fanlar (arifmetika, geometriya, astronomiya) doirasida tasnif etilgan musiqa ilmida samo'ga muvofiq musiqiy asarlarni yaratish uchun birinchi galda uyg'un tovushlar nisbatiga asoslangan mukammal pardalarni aniqlash zarur bo'lgan.

Bunga erishishning eng ishonchli yo'li sifatida esa Pifagorning (taxm.e.a.580–500-yy.) matematik usuli e'tiroflangan va ilmga joriy etilgan edi.

Alalxusus, Pifagorning matematik ta'limotini meros o'zlashtirgan Sharq allomalari ruhan yoqimli samo' namunalari mukammal tovushlar uyushmasiga asoslanishini ilmiy jihatdan aniqlashga erishganlar. Shunga ko'ra, oktava miqyosini qamragan bunday uyushmalar tarkibidagi o'zaro uyg'un tovushlar (bo'dlar – intervallar) nisbati muqaddas samo' namunalari sifatiga muvofiq bo'lgan. Shu tariqa turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan payg'ambarlarning samo' merosi O'rta asrlarga kelib Sharq musulmon olamida salobatli musiqa tizimlariga muhim asos bo'ldi.

Yana e'tiborlisi shundaki, mukammal tovushlar uyushmasiga oid dastlab "yo'l" ma'nosini anglatuvchi "roh", "ravish", "ravashin", "tariqa", "taroiq" kabi forsiy-arabiy atamalar qo'llangan edi. Bu ham bejiz emas, albatta. Shundayki, payg'ambarlar xalqlarga chinakam baxtga erishishning eng to'g'ri yo'llarini ko'rsatganlari yanglig' musiqada ham "to'g'ri yo'l" (mukammal parda) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etgan. Zotan, samo' namunalariida tinglovchini hol tili ila ezgulikka, poklikka, ma'naviy to'g'ri yo'lga "da'vat etuvchi" sohir ohanglar bordir. XIII-XIV asrlarga kelib "musiqiy yo'llar"ga nisbatan arabcha "maqom" atamasi keng qo'llana boshlangan edi. Shunday bo'lsa-da, "yo'l" tushunchasi ham o'z ahamiyatini butkul yo'qotgan emas, balki hozirgi davrga qadar "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari", Xorazm maqomlarining "aytim yo'li", "chertim yo'li", shuningdek, "surnay yo'li", "dutor yo'li" kabi iboralarda o'z kuchini saqlab kelmoqda.

Shuni alohida qayd etmoq kerakki, Abu Nasr Forobiy va uning izdoshlari qadimgi yunonlarning ilmiy merosini o'z zamonasi musiqiy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy rivojlantirgan edilar. Bu hol, musiqaning ilmi ta'lif (nag'ma, bo'd, jins, jam') va ilmi iyqo' (vazn) masalalarini tadqiq etishda ko'zga tashlanadi. Bunga Forobiyning Sharq musulmon olamida mumtoz musiqaning universal qonuniyatlarini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etgan "Kitabul-musiqa al-kabir", "Kitabul iyqa'at" va "Kitab fi ixsaulyyqa'at" kabi ilmiy asarlari yaqqol misol bo'lishi mumkin.

Masalan, Forobiy iyqo'-ritm masalalariga qadimgi yunon olimlari kabi she'riyat qonunlari doirasida emas, balki alohida fan sifatida yondoshgan edi. Bu borada qomusiy allomaning "Kitabul iyqa'at" ("Iyqolar kitobi") va "Kitab fi ixsaulyyqa'at" ("Iyqo sanog'i

kitobi”) ilmiy asarlari alohida muhim ahamiyat kasb etgan [Hazarov 1995]. Chunki bu asarlarda ilk bor mumtoz iyqo’ nazariyasi ishlab chiqilgan bo’lib, unda ritm-usul omilining mustaqil badiiy ahamiyati hamda musiqada tutgan beqiyos o’rni asoslab berilgan edi. Forobiyning iyqo’ ta’limoti keyinchalik alloma Ibn Sinoning “Kitobush-shifo”, “Kitobun-najot” va “Donishnoma” ilmiy asarlarida rivojlantirildi.

Filologiya fanlari doktori Zokirjon Oripovning aniqlashicha, Abu Nasr Forobiyning qadim manbalarda zikr etilgan, ammo bizgacha yetib kelmagan yoki shu paytgacha topilmagan musiqaga oid quyidagi ilmiy asarlari ham bo’lgan:

1. كتاب الموسيقى الكبير “Katta musiqa kitobi”ning ikkinchi kitobi. Forobiy uni الكتاب الثاني “Ikkinchi kitob” deb ataydi.

2. كلام في النقرة مضافا الى الإيقاع “Iyqoga qo’shimcha naqra haqida so’z”. Bu asarni Ibn abi Usaybia eslab o’tadi. Mahmud Ahmad Hafniy uni كتاب في النقرة مضافا الى الإيقاع “Iyqoga qo’shimcha ko’chish haqida so’z” deb ataydi. Umuman bu asarning nomi turlicha atalib kelingan [Oripov 2017, 28].

Xulosa

Mumtoz maqomlar shakllanishiga oid ustoz olim Is’hoq Rajabov qayd etgan omillar VIII asrdan yuzaga kela boshlagan, IX-X asrlar davomida esa uzil-kesil qaror topgan edi. Chunki, aynan shu davrlarga kelib Sharq musulmon olamida ilmiy-ijodiy faoliyat olib borish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo’lgan shaharlar qad ko’tardi, ishq falsafasi bilan yo’g’rilgan komil inson ta’limoti Sharq xalqlari orasida keng yoyilib, uning ijobiy ta’siri badiiy ijod jabhalarida ko’rina boshladi. Shuningdek, aniq fanlar tarkibida musiqa ilmi ham rivoj topgan ediki, pirovardida kasbiy musiqa qatlamini maqsadli ravishda yangi bosqichga yuksaltirish uchun muhim asos yaratildi.

Zotan, musiqa ilmida olib borilgan samarali izlanishlar pirovardida mumtoz musiqaning universal qonuniyatlari nazariy shakllantirildi va erishilgan natija payg’ambarlarning samo’merosi, bastakorlik ijodiyoti va Sharq xalqlari musiqiy qadriyatlarini mujassam etgan o’ziga xos musiqa qomusi – salobatli maqom tizimlarining yaratilishida poydevor asos bo’ldi.

Bu borada ayniqsa Abu Nasr Forobiyning xizmatlari ulkandir. Zero, allomaning “Kitabul-musiqa al-kabir” (“Katta musiqa kitobi”) shoh ilmiy asari maqomlar mohiyatini teran idrok etish borasida bugungi kunga qadar mutaxassislar diqqat-e’tiborini o’ziga tortib

kelmoqda. Mumtoz musiqaning poydevor asoslarini anglab olishda beqiyos bu manbaning qo'lyozma nusxalari hozirda Turkiya, Ispaniya va Italiya kutubxonalarida saqlanmoqda¹. Asar ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan hamda bir necha tillarga to'liq va qisman tarjima qilingan [Erlanger R.d' 1935; Форобий 1997; Дайкеева 2002; Орипов 2017].

Binobarin, yuqorida muxtasar tavsif etilgan omillarning yuzaga chiqishi o'laroq kishilarning ongi va saviyasi, musiqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari yuksalib, shu asnoda jahon san'atining beqiyos namunalaridan bo'lgan maqom turkumlari shakllanishi uchun barcha omillar jamul jam bo'lgan edi.

Adabiyotlar

- Абу Бакр Бухорий-Калободий. 1993. *Китобут-таъарруф ли-мазҳабит-тасаввуф. Қавлиҳум фис-самаъ ва одобиҳи*. IV жилд. Форсчадан А.Ф.Назаров таржимаси (қўлёзма). Тошкент: ЎзР ФА Санъатшунослик институти кутубхонаси, инв. № 922.
- Абдурахман Джами. 1960. *Трактат о музыке*. Перевод с персидского А.И.Болдырева, ред.и комментарии В.М.Беляева. Ташкент: АН РУз.
- Абул Фарадж Исфохани. 1980. *Книга песен*. Москва: Наука.
- Абу Мансур Абдумалик ибн Муҳаммад Саолибий. 1990. *Татиммат ал-Йатима*. Тошкент: Фан.
- Абу Наср Форобий. 1993. *Фозил одамлар шаҳри*. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
- Абу Наср Форобий. 1997. *Китабул-мусиқа ал-кабир*. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Назаров. Мусиқа ижодиёти масалалари. Тошкент: Қатортол-Камолот.
- Виноградов, В. 1981. *Классические традиции иранской музыки*. Москва: Сов. Композитор.
- Дайкеева, С. 2002. *Философия музыки Абу Насра Мухаммада аль-Фараби*. Алматы.
- Erlanger, R.d' 1935. *La musique arabe*. I,II,III Paris.: Librairie Orientalist Pauln Yeuthner.
- Farmer, H.G. 1957. pp. 458-459. *The Music of Islam*. London. Oxford. Toronto.
- Мўъжизий, Исматуллоҳ ибн Неъматуллоҳ. 2010. *Таворихи мусиқийун*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Назаров, Абдуманнон. 1995. *Форобий ва Ибн Сино мусиқий ритмика хусусида (мумтоз ийқоъ назарияси)*. Тошкент.
- Назаров, А. 1994. "Марказий Осиё мусиқа тарихидан янги манбалар". *Ражабийхонлик*, 84-90. Тошкент.

¹Turkiya, Istanbul kutubxonasi, inv. № 22; Ispaniya, Madrid kutubxonasi, inv. №602; Italiya, Milan kutubxonasi, inv, № 289.

- Орипов, З. 2017. *X-XV асрлар Марказий Осиё мусиқа манбашунослиги*. Тошкент: Наврўз.
- Ражабов, Исҳоқ. 2006. *Мақомлар*. Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир О.Иброҳимов. Тошкент: San'at.
- Тўраев, Файзулла. 2008. *Бухоро муғаннийлари*. Тошкент: Фан.
- Дарвиш Али Чанги. 1982. *Трактат о музыке*. Перевод с перс-тадж. Д.Рашидовой (рукопись). Ташкент: Институт искусствознания АН РУз., инв. № 879.

On the History of the Formation of Classic Maqoms

Oqilkhon Ibrohimov¹

Abstract

Maqoms, which are classic examples of professional oral music, form an important part of the musical heritage of most of the Muslim peoples of the East. The Arabic term "maqom" denotes cycles of instrumental and vocal music, created on the basis of a combination of perfect scales and certain metro-rhythmic structures (*usul*). In order to better understand the content-semantic aspect of this kind of musical cycles, first of all, it is necessary to have a certain idea of the history of the origin and factors of the development of this art.

The history of this ancient art can be divided into two main periods. The first period is characterized by the formation of intonational primary sources, because at that time there were no maqoms in the form in which we know them now. An important layer of these sources is the spiritual heritage of the great prophets, and another layer is associated with the ancient values of the musical creativity of the peoples of the East.

Key words: *music, samo, maqom, navo, prophet, ritual, navruz, sayil, got, tarona, risola, seven.*

References

- Abu Bakr Buhorij-Kalobodiy. 1993. *Kitobut-tarruf li-mazhabit-tasavvuf*.

¹ *Oqilkhon A. Ibrohimov* – Doctor of Sciences in Art Criticism, Head of Music Art Department, Professor, the Fine Arts Institute of Academy of Science of Republic of Uzbekistan.

E-mail: okilxoni@bk.ru

ORCID ID: 0000-0002-3118-2041

For citation: Ibrohimov, O. A. 2021. "On the History of the Formation of Classic Maqoms". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 98–110.

Qavlihum fis-sama va odobihi. IV zild. Forschadan A.F.Nazarov tarzhimasi (quljozma). Toshkent: UzR FA Sanatshunoslik instituti kutubxonasi, inv. № 922.

- Abu Nasr Forobij. 1993. *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Abdulla Qodirij nomidagi halq merosi nashrijoti.
- Abu Nasr Forobij. 1997. *Kitabul-musiqa al-kabir*. Arab tilidan tarzhima va izohlar muallifi A.Nazarov. Musiqa izhodijoti masalalari. Toshkent: Qatortol-Kamolot.
- Abul Faradzh Isfahani. 1980. *Kniga pesen*. Moskva: Nauka. Vinogradov, V. 1981. *Klassicheskie tradicii iranskoj muzyki*. Moskva: Sov. Kompozitor.
- Abdurahman Dzhami. 1960. *Traktat o muzyke*. Perevod s persidskogo A.I.Boldyreva, red.i kommentarii V.M.Beljaeva. Tashkent: AN RUz.
- Daukeeva, S. 2002. *Filosofija muzyki Abu Nasra Muhammada al'-Farabi*. Almaty.
- Erlanger, R.d' 1935. *La musique arabe*. I,II,III Paris.: Librairie Orientalist Pauln Yeuthner.
- Farmer, H. G. 1957. pp. 458-459. *The Music of Islam*. London. Oxford. Toronto.
- Muzhizij, Ismatulloh ibn Nematulloh. 2010. Tavorihi musiqijun. Toshkent: Mumtoz suz.
- Nazarov, Abdumannon. 1995. *Forobij va Ibn Sino musiqij ritmika hususida (mumtoz ijqo nazariyasi)*. Toshkent.
- Nazarov, A. 1994. "Markazij Osijo musiqa tarihidan jangi manbalar". *Razhabijhonlik*, 84-90. Toshkent.
- Oripov, Z. 2017. *X-XV asrlar Markazij Osijo musiqa manbashunosligi*. Toshkent: Navruz.
- Razhabov, Ishoq. 2006. *Maqomlar*. Nashrga tajjorlovchi va masul muharrir O.Ibrohimov. Toshkent: San'at.
- Saolibij, Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad. 1990. *Tatimmat al-Jatima*. Toshkent: Fan.
- Turaev, Fajzulla. 2008. *Buoro mugannijlari*. Toshkent: Fan.
- Darvish Ali Changi. 1982. *Traktat o muzyke*. Perevod s pers-tadzh. D.Rashidovoj (rukopis'). Toshkent: Institut iskusstvoznaniya AN RUz., inv. № 879.